

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati .....	231
<b>O.I.Abdug'aniyev</b>	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari .....	236
<b>T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov</b>	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish .....	244
<b>P.A.Xasanov</b>	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv .....	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
<b>N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov</b>	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

---

**ILMIY AXBOROT**

<b>K.G'.Baykalanov</b>	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
<b>G.M.Maxsudova</b>	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari .....	267
<b>Sh.Ismatov</b>	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon .....	272
<b>A.A.Saodatov</b>	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
<b>M.X.Raxmatulloev</b>	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati .....	280
<b>D.I.Nuriddinova</b>	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
<b>D.M.Redjabova</b>	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi .....	290
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari .....	294
<b>K.I.Turdaliyeva</b>	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов .....	297
<b>N.A.Subxonova</b>	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi .....	303
<b>Sh.M.Xaydarova</b>	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi .....	307
<b>D.M.Xusanov</b>	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari .....	311
<b>R.S.Batirov</b>	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida .....	315
<b>A.X.Mamadalimov</b>	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida .....	319
<b>Y.Sh.Yunusova</b>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari .....	324
<b>N.T.Buzrukova</b>	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari .....	327



УО'К: 316.334.2

**IJTIMOIY KAPITAL TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY ELEMENTLARI XUSUSIDA****ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА И ЕГО ОСНОВНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ****THE CONCEPT OF SOCIAL CAPITAL AND ITS MAIN ELEMENTS****Batirov Ravshanbek Saparovich**

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada ijtimoiy kapital insoniyat tarixi mobaynida qator tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy omillar ta'sirida shakllanganligi hamda u jamiyat a'zolari o'ttasidagi ishonch, hamkorlik, o'zaro yordam va ijtimoiy aloqalar asosiga qurilganligi to'g'risidagi ayrim mulohazalar bayon qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается, как социальный капитал формировался на протяжении истории человечества под воздействием различных природных, исторических, социо-экономических, политических и духовных факторов. Также обсуждается основа социального капитала, которая строится на доверии, сотрудничестве, взаимопомощи и социальных отношениях между членами общества.

**Abstract**

This article discusses how social capital has been shaped throughout human history by various natural, historical, socio-economic, political, and spiritual factors. It also addresses the foundation of social capital, which is built on trust, cooperation, mutual assistance, and social relationships among members of society.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy kapital, inson kapitali, fuqarolik jamiyati, an'analar, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar, ijtimoiy maqom, ishonch, hamkorlik.

**Ключевые слова:** социальный капитал, человеческий капитал, гражданское общество, традиции, культура, социополитические условия, социальный статус, доверие, сотрудничество.

**Key words:** social capital, human capital, civil society, traditions, culture, socio-political conditions, social status, trust, cooperation.

**KIRISH**

Ijtimoiy kapital – jamiyat a'zolarini birlashtirib turadigan fenomen. Xalqning davlat va hokimiyatga ishonchi aynan ijtimoiy kapital orqali ro'yobga chiqadi. Ishonch qachon paydo bo'ladi? Qachonki odamlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirot etsa. Bunday faoliy qachon yuzaga keladi? Qachonki davlat organlari xalq manfaatlariga xizmat qilsa. Boshqacha aytganda, fuqarolarga obyekt emas, islohotlar subyekti sifatida qarash va ularning fikri bilan hisoblashish kerak.

Ijtimoiy kapital o'ziga xos va murakkab tushuncha bo'lib, u nomoddiy va uni miqdor va sifat jihatdan o'lchash anchagina mushkuldir. Ijtimoiy kapitalni o'lchashda beg'araz yordam, homiylik, volonterlik, ko'ngillilik, NNTlarga a'zolik, saylovlarda ishtirot etish, qabul qilingan kundalik axloqiy hamda boshqa normalarga, tamoyillariga qat'iy rioya qilish va boshqalar inobatga olinadi[1].

Ko'p narsa jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar arxitekturasiga bog'liq. Masalan, gorizontal modelda tenglik tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda fuqarolarga o'z qobiliyatini namoyon etishi, tashabbus ko'rsatishi uchun ko'proq erkinlik beriladi. Vertikal (iyerarxik) munosabatlar tizimida esa buning aksini ko'rish mumkin. Turgan gapki, davlat tomonidan total boshqaruvin o'rnatilgan jamiyatda demokratiya haqida gapirish tugul, hatto o'ylash ortiqcha.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ijtimoiy kapital iqtisodiy adabiyyotlarda juda keng qo'llanilgan tushunchalardan biridir. Chunki ijtimoiy kapital davlatning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kapital dastlab Pyer Burdyo tomonidan 1983-yilda o'zaro foyda olish mumkin bo'lgan ijtimoiy aloqalarni ifodalash maqsadida kiritilgan tushunchadir. P.Burdyoning ijtimoiy kapital konsepsiysi "o'zaro majburiyat va mas'uliyatga asoslangan u yoki bu darajada institutlashgan yoki mustahkam tarmoq aloqalarini o'z ichiga olgan mavjud va ehtimoliy zaxiralar majmuasi"ni ifoda etadi. Uning qarashi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsadi shaxsiy manfaat yo'lida kishilarning o'zaro munosabatlarga kirishgan holda o'rtada foydalanish mumkin bo'lgan resurs toplash imkoniyatlarini ifodalashdan iborat. Uning fikriga ko'ra, "guruhga a'zolik tufayli to'planadigan foyda, bo'lajak hamkorlikning poydevori hisoblanadi"[2].

Amerikalik olimlar siyossiy tadqiqotchi Dj.Kaulman (1990), sotsiolog A.Portes (1986), R.Patnemlar (2000) ijtimoiy kapitalning fenomeni, shakllanish va rivojlanish manbalarini tadqiq etishgan.

Amerikalik tadqiqotchi Robert D.Patnem ta'kidlaydi, agar Amerikada ijtimoiy kapitalni to'liq tushunmoqchi bo'lsangiz boulung o'ynashingiz zarur. Boulingni ijtimoiy ahamiyati shundaki, u insonlarni birlashtiradi, bir jamoa bo'lib harakat qilishga undaydi, birgalikda pivo ichish va pitssa yeyish, o'z ishlari haqida do'stona suhbat orqali o'yinchilarning ishonchi ortadi. Bouling amerikaliklar uchun saylovga borish va ovoz berishdan ham zavqliyroqdir. Bouling ijtimoiy kapitalining kichik bir ko'rinishidir[5:70].

Mamlakatimizda ijtimoiy kapital bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borishda ma'lum natijalarga erishilgan. Bu o'rinda ijtimoiy kapital rivojida fuqarolik jamiyatni institutlarining roli, O'zbekistonda ijtimoiy kapital rivojining tarixiy ildizlari A.Choriyev, S.Choriyev, S.Saidov, D.Ernazarov, Q.Nazarov, I.Saifnazarov, B.Aliyev, A.Muxtarov, X.Djo'raqulovlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan. I.Ergashev, N.Jo'rayev, A.Muminov va boshqalarning tadqiqotlarida ijtimoiy kapitalning fuqarolik jamiyatiga oid xususiyatlari, uning siёsий ва ҳуқуқий масалалари тадқиқ этилган[3:7].

Sotsiolog M.Sodirjonov o'zining tadqiqotlarida ijtimoiy kapital-insonlarning o'zaro ijtimoiylashuvi natijasidir. Kishilar o'rtasidagi xatti-harakat normalari va o'zaro ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini yaratadi. Ijtimoiy kapital keng ma'noda jamiyatdagi moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuidir. Shuningdek, jamiyatda insonlarning umuminsoniy axloq qoidalari tizimidagi ishonchli foliyat ko'rinishidir[7:43].

Mahallada ijtimoiy kapital hamda davlat va jamiyatini barqaror rivojlanishida asrlar mobaynida shakllanib kelgan o'ziga xos milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarga tayaniladi. Fikrimizcha, Islom dini asosida Markaziy Osiyoda xalqlari hayotida ijtimoiy kapitalning vujudga kelishi va rivojlanishing birlamchi manbasi hisoblanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir jamiyatning uzoq tarixiy jarayonlari, insonlarning ijtimoiy hamkorlik va an'analarini zamirida rivojlanadi. Rivojlantirish esa, o'zaro ishonch, ijtimoiy qadriyatlar, davlat va nodavlat tashkilotlarda ko'ngilli ishtiroklari, faoliy va tashabbuskorlik kabi omillarida namoyon bo'ladi. Buning uchun esa zamonaviy o'zbek jamiyatida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni mobillashtirish va o'zaro ishonchni ortirishga yordam beruvchi, turli faktorlar individul va jamoaviy hamkorlik, muloqot, umumiy munosabatlar o'rnatish yo'li orqali ijtimoiy kapitalni jamiyatning muayyan potetsial va uning ajralmas qismiga aylantiriladi.

Ijtimoiy kapital – shaxsning ijtimoiy maqomini yaratuvchi, uning ijtimoiy transaksiyalar tizimidagi o'rnni belgilovchi va shaxsga muayyan daromad olishini ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro aloqalar jarayonida yuzaga keladigan va rivojlanadigan barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlar tizimidan iborat o'ziga xos qadriyat[4:82].

Ijtimoiy kapital – bu jamiyatning a'zolari o'rtasidagi ishonch, hamkorlik, o'zaro yordam va ijtimoiy aloqalardan iborat bo'lgan resurs. Ijtimoiy kapital, asosan, insonlarning bir-biri bilan muvaffaqiyatli va samarali munosabatlar qurishiga yordam beradigan ijtimoiy tarmoqlar, urf-odatlар va qoidalari jihatidan tuziladi. Bu kapital turi jamiyatdagi odamlar va guruhlar o'rtasidagi aloqalarning sifati va uning funksional imkoniyatlariga bog'liqidir.

Ijtimoiy kapitalning vujudga keltiruvchi sabablari va uni rivojlantiruvchi bir nechta omillar mavjud:

1. Oila – har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Shunga ko'ra, oilaning bolaga ta'siri spetsifik, o'ziga xos bo'lgani uchun, uning ma'naviy-ahloqiy qiyofasining

**ILMIY AXBOROT**

shakllanishi ham o'ziga xos va takrorlanmasdir. Ijtimoiy kapital va resurslar manbalarini vujudga kelishida oilaning roli beqiyosdir.

2. Maktab – ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muhim bosqichi.

3. Mahalla – to'y-hasham, hashar, urf-odatlar tarannumi, marosim va an'analardagi ishtiroklar aosida vorisiylik omili taraqqiy etib boradi.

4. Etnik guruqlar va munosabatlar – aholining o'zlikni anglash darajasi, fuqoralarning hayot mazmuni, kundalik turmush tarzi, millatga xos milliy mintalitet.

5. Ijtimoiy harakatlar, ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlari – ta'lif, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarin rivojlantirivchi dastur va harakatlar.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda jamoat tashkilotlari va ko'ngillilar uyushmalarining o'zaro samarali ijtimoiy aloqalari tizimidan tashkil topadi. Natijada, jamiyat o'zining kommunikatsiyalarini, mamlakatning iqtisodiy va siyosiy sohalariga tegishli prinsiplardan farq qiladigan, o'ziga xos qonuniyatlar – tenglik, birdamlik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ishonch asosida shakllantiriladi [6:46-47].

Jamiyatda ijtimoiy kapitalni yaratish zaruratida yeng avvalo ijtimoiy kapital mohiyatini to'liq anglab olish uchun jamiyat borlig'i hususida tasavvur hosil qilib olish muhimdir. Ma'lumki jamiyat sohalar va sotsial strukturalardan iborat yahlitlikni tashkil yetadi. Ijtimoiy faoliyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy kapitalning asosiy elementlari sifatida quydagilarni aytishimiz mumkin:

1. Bir-biriga ishonch va yordam berishga tayyorlik. Bu ishonch jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

2. Ijtimoiy kapital, insonlar va guruqlar o'tasida o'zaro yordam va hamkorlik qilishni tashkil qiladi. Agar odamlar bir-birlariga yordam berishga tayyor bo'lsa, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti faollahshadi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatdagi odamlar o'tasidagi aloqalarni va ularning hamkorlik qilish imkoniyatlarini yoritadi. Bu tarmoqlar ishlashga yordam berib, ma'lumot va resurslarni almashish imkonini yaratadi.

4. Ijtimoiy kapitalning yana bir jihat guruhlarning, jamoalarning va jamiyatlarning o'zaro yagona maqsadga yoki qiymatlarga qarab birlashishidir. Bu solidarlik, muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy kapitalning ahamiyati quydagilarda namoyon bo'ladi: Birinchidan, ijtimoiy kapital ko'pincha iqtisodiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hamkorlik va ishonch yaratilgan jamiyatlarda iqtisodiy imkoniyatlar, resurlarning samarali taqsimoti, ishbilarmonlik faoliyati yuksaladi. Ikkinchidan, odamlar orasidagi ijtimoiy tarmoqlar, yordam berish va hamkorlikning mustahkamlanishi, salomatlik va farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatlarda ishonchning yuqori darajada bo'lishi, insonlarning psixo-emotsional holatiga, stressga bo'lgan munosabatlariga ham yaxshilik yaratadi. Uchinchidan, ijtimoiy kapital jamiyatdagi muammolarni birgalikda hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Agar jamiyatdagi odamlar o'zaro ishonchli va hamkorlikka tayyor bo'lsa, ularning birgalikda ishlash qobiliyati ko'proq va samarali bo'ladi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy kapital holatini qator mezonlar yordamida aniqlash mumkin. Buning uchun qator iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy mezonlarga asoslanish zarur bo'ladi.

Ijtimoiy kapital – bu insonlar va jamiyatlar orasidagi ishonch, hamkorlik va o'zaro aloqalardan iborat bo'lgan muhim resurs. Bu kapitalni rivojlanish va shakllantirish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Turli statistik ma'lumotlar, sotsiologik tadqiqot natijalari, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan va haqqoniyligi asoslangan fakt va argumentlar ijtimoiy kapital darajasini aniqlashning muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ernazarov D. Ijtimoiy kapital to'g'risidagi konsepsiylar rivojlanishi tarixi. [https://www.academia.edu/41822449/ижтимоий\\_капиталнинг\\_рив?uc-q-sw=41822446](https://www.academia.edu/41822449/ижтимоий_капиталнинг_рив?uc-q-sw=41822446)
2. Ernazarov D. Ijtimoiy kapital rivojlanishida mahallaning o'mi. <https://www.academia.edu/41822446/>
3. Norqobilov M.J. Ijtimoiy kapital – milliy hamjihatlikni ta'minlash manbai. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022.

4. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.
5. Robert D. Putnam, Bowling alone: America’s declining social capital, in: Journal of Democracy, 6 (1995).
6. Samadov T. Jamiatda ijtimoiy kapitalni shakllantirish va rivojlantirish zarurati. Taraqqiyot tadqiqotlari. Volume II, Issue-19, (July) 2024. – Б. 46-50. Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>
7. Sodirjonov M. M. Inson kapitali pivojlanish jayayonlapining etnosotsiologik xususiyatlari (Fapg’ona vodiysi misolida). Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.